

MADANIY BOYLIKLARNI ASRAB AVAYLASH, ULARNI KELAJAK AVLODLARGA
YETKAZISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARGA DOIR AYRIM
MULOHAZALAR

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Farg'ona davlat universiteti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Annotation: Ushbu maqolada Madaniy meros agentligi tomonidan xorijiy davlatlardagi O'zbekistonga tegishli bo'lgan madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini olib kelish, ularning to'liq ma'lumotlar bazasi - reyestrini yaratish choralarini belgilash yo'nalishida amalga oshirilgan ishlari yoritilgan.

Таянч сўз ва иборалар: O'zbekiston Respublikasi, madaniy boyliklar, Markaz, agentlik, WOSCU, qo'lyozma, Xalqaro kongress.

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ О ВЕДУЩЕЙСЯ РАБОТЕ ПО СОХРАНЕНИЮ
КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПЕРЕДАЧЕ ИХ БУДУЩИМ ПОКОЛЕНИЯМ

Аннотация: В данной статье описана работа, проводимая Агентством по культурному наследию в направлении выявления принадлежащих Узбекистану культурных ценностей в зарубежных странах, привоза их копий и определения мер по созданию полной базы данных – реестра их.

Ключевые слова и выражения: Республика Узбекистан, культурные ценности, Центр, агентство, WOSCU, Рукопись, Международный Конгресс.

SOME COMMENTS ON THE ONGOING WORK TO PRESERVE CULTURAL
ASSETS AND PASS THEM ON TO FUTURE GENERATIONS

Annotation: This article describes the work carried out by the Cultural Heritage Agency in the direction of identifying the cultural assets belonging to Uzbekistan in foreign countries, bringing their copies, and determining measures to create a complete database - register of them.

Keys words and expressions: Republic of Uzbekistan, cultural assets, center, agency, WOSCU, manuscript, International congress.

Mamlakatimizda tarixiy-madaniy boyliklarni asrab avaylash, ularni kelajak avlodlarga munosib yetkazish bo'yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada nafaqat mamlakatimizda mavjud tarixiy-madaniy boyliklar tadqiq etilibgina qolmay, balki, turli yo'llar bilan xorijga chiqib ketgan madaniy boyliklarning yurtimizga qaytarilishi bo'yicha ishlarni amalga oshirilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-1 (30- January)

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mazkur jarayonni yangi bosqichga ko'tarilishiga asos yaratdi.

Mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi tashkil etilib, uning asosiy vaziflari belgilab berildi:

❑ markaz zimmasiga milliy va xorijiy mutaxassislarni jalgan holda, chet ellarda saqlanayotgan, mamlakatimiz tarixi hamda madaniyatiga oid boyliklarni aniqlash;

❑ ularning to'liq ma'lumotlar bazasi - reestrini yaratish hamda uni muntazam yangilab borish;

❑ shuningdek, ana shu tarixiy eksponatlarning asl yoki ko'chirma nusxalarini, foto va videotasvirlarini yurtimizga olib kelish;

❑ tegishli ilmiy markazlar bilan birgalikda tadqiqotlar olib borish, erishilgan natijalarni ilmiy muomalaga kiritish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish [1].

Ushbu markazning yozma merosimizga oid manbalarni izlash, aniqlash va ular ustida dastlabki tadqiqotlar yuritish kabi xayrli faoliyati dastlab Moskvadagi Rossiya davlat kutubxonasi va Sankt-Peterburg shahridagi Rossiya milliy kutubxonasida amalga oshirildi.

Tadqiqotlar natijasida Rossiya davlat kutubxonasi qo'lyozmalar fondida 60 dan ortiq qo'lyozma O'zbekistonga oid ekanligi aniqlangan bo'lsa, Sankt-Peterburgdagi Rossiya milliy kutubxonasi qo'lyozmalar bo'limida esa 110 ga yaqin qo'lyozma mamlakatimizga tegishli ekanligi aniqlangan. Bular qatorida Rossiya davlat kutubxonasi qo'lyozmalar fondidagi Mirzo Ulugbekning "Ziji", Davlatshoh Samarqandiyning 1593-yili ko'chirilgan "Tazkirat ush-shuar" asarlarining noyob qo'lyozma nusxalari, shuningdek, Rossiya milliy kutubxonasi qo'lyozmalar bo'limida Alisher Navoiyning 1465-yili ko'chirilgan "Ilk devon"i qo'lyozmasi hamda 1592–1596-yillari Ozarbayjonning Qizilog'och shahrida ko'chirilgan Alisher Navoiy asarlaridan iborat "Majmua"si borligi madaniy merosimizni yanada boyishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasida Rossiya davlat hamda milliy kutubxonasida saqlanuvchi O'zbekistonga oid qo'lyozmalar haqidagi 160 dan ortiq ma'lumot Markaz reestriga kiritilib, ilmiy tafsif qilinishi yo'lga qo'yildi [2] .

Bundan tashqari, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari institutida ham dunyoda yagona nusxada bo'lgan va Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda muhim manba sanaluvchi Qo'qon xoni Umarxon davri tarixiga bag'ishlangan Mirza Qalandar Mushrif Isfarangiyning "Shohnomai Umarxoniy" va Fazliy Namangoniyning "Umarnoma" asarlari qo'lyozmalari kabi bir qator noyob qo'lyozmalar saqlanmoqda. Markaz bilan Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari institut ma'muriyati tomonidan mazkur ikki qo'lyozma nusxalarini O'zbekistonga keltirish va faksimil nashrlarini

amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi hamda "Rossiya Davlat kutubxonasi" O'zbekistonga oid qo'lyozmalar" hamda "Rossiya Milliy kutubxonasi" Qo'qon xonligiga oid qo'lyozmalar" singari kataloglar yaratish, ilmiy jamoatchilikni xorijdagi merosimizga oid qo'lyozmalar bilan tanishtirish ishlari yo'lga qo'yildi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-sun qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etilishi madaniy boyliklarni asrab avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish borasida qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlardan biri bo'ldi. Agentlikning asosiy vazifalari qatoriga mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid xorijdagi madaniy boyliklarni aniqlash, ularning to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish, muntazam yangilab borish hamda asl yoki ko'chirma nusxalari, foto va videotasvirlarini yurtimizga olib kelish kiritildi.

Agentlik tomonidan xorijiy davlatlardagi O'zbekistonga tegishli bo'lgan madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini olib kelish, ularning to'liq ma'lumotlar bazasi - reyestri ni yaratish choralarini belgilash yo'nali shida qator ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunga qadar Madaniy meros agentligi tomonidan xorijda saqlanayotgan O'zbekistonga oid 9 mingdan ortiq madaniy boyliklar aniqlangan. Ularning asosiy qismi Rossiya, Turkiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada joylashgan. Madaniy boyliklarning 2341 tasi arxeologiya va etnografiyaga oid ashyolar, 3969 ta qo'lyozma, 969 ta turli davrlarga oid tangalar, 986 ta tekstil mahsulotlari, 487 ta musiqiy meros, 208 ta miniatyura asarlari hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida yashab o'tgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosiga oid 86 ta qo'lyozmaning elektron nusxasi xorijiy davlatlardan olindi. O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni aks ettiruvchi jami 260 ta madaniy ashyoga oid ma'lumotlar aniqlandi va ularning ilmiy tavsifi amalga oshirildi [4].

2018-yilda dunyoning 40 mamlakatidagi 300 dan ortiq sharqshunoslari tashabbusi WOSCU - O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatini bilan tashkil etilgan edi. 2023-yil 5-8-noyabr kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston xukumati ko'magida WOSCU, Madaniy meros agentligi, Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, UNESCO ning O'zbekistondagi vakolatxonasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida "O'zbekiston madaniy merosi - yangi Renessans asosi" VII Xalqaro kongressining bo'lib o'tishi madaniy boyliklarimizni yurtimizga qaytarilishida muhim tarixiy jarayon hisoblanadi. Xalqaro kongressda xalqaro va mahalliy olimlarning 120 ga yaqin ma'ruzalari tinglandi hamda bir-biridan qiziq va ahamiyatli yangiliklar e'lon qilindi.

Shuningdek, Butunjahon jamiyatining noshirlik loyihalari - "Sharq miniatyurasida tarixiy shaxslar", "Rishton kulolchiligi", "O'zbekiston san'ati durdonalari", "Orol va Amu bo'ylarida: qoraqalpoq san'ati", "Badiiy atamalari ensiklopediyasi" albomlari, "Bezak ensiklopediyasi" mavzulariga bag'ishlangan nashrlar, "O'zbekiston gilamlari", "114 Qur'on", "Sharqning 100 nodir qo'lyozmasi" loyihalari kongress ishtirokchilari taqdim etildi [5].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida milliy – ma’naviy merosimizni tiklash va asrash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ayniqsa, xorijdagi O’zbekistonga oid madaniy merosimizni o’rganish va targ’ib etish ishlari diqqatga sazovordir. Xorijlik olimlar tomonidan mamlakatimiz madaniy boyliklarini yuksak darajada e’tirof etilishi tariximizni buyukligidan darak beradi albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.<http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-vazirlar-ma-kamasi-uzuridagi-zbekisto-20-06-2017>.
2. <https://aniq.uz/yangiliklar/rossiya-kutubxonalaridan-uzbekiston-tarixiga-oid-eng-nodir-qulyozmalar-topildi>
3. bukhari.uz// Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни мамлакатга қайтариш борасида амалга оширилган тадбирлар/18/10/2019.
4. <https://www.xabaruz.com/uz/madaniyat/xorijda-ozbekistonga-oid-9-mingdan-ortiq-boyliklar>.
5. uza.uz//Ўзбекистон маданий мероси – янги Ренессанс асоси//05.11.2023
6. Shamsiyeva M.X., Talabjonov B.S. Farg’ona vodiysida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning turizm industriyasidagi o’rni. Monografiya.- Farg’ona, “Classic”-2023.